

ONAMIZ – OMONATIMIZ

podpolkovnik Umarov Raxmat Nigmatovich
Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti
Chegara qo‘shinlari xizmati va taktikasi kafedrası
boshlig‘ining o‘rinbosari

Annotatsiya: ushbu maqolada bir o‘g‘ilning onasi bilan o‘tkazgan bir ajoyib kechasi va o‘g‘ilning qalbida shirin hotiralarning uyg‘onishi ifodalangan bo‘lib, haqiqatdan ham onalarimiz – omonatimiz ekanligi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: ona, restoran, quvonch, menyu, ayolim.

Аннотация: в данной статье раскрыты провиденной изумительного вечера одного сына с матерю и пробуждение у сына душевное воспоминание.

Ключевые слова: мать, ресторан, радость, меню, супруга.

Ertalab choy ichib o‘tirgandim. Ayolim kelib, yonimga o‘tirdi. Piyolaga choy quyib uzatarkan, asta gap boshladi.

Dadasi, bugun boshqa bir ayolni kechki ovqatga taklif qilishingizni istayman. Chaynab turgan nonim tiqilib qola yozdi.

Tinchlikmi, onasi? Qanaqa ayol bilan kechki ovqatga boraman, ko‘rganlar nima deydi, esingni yedingmi?-dedim o‘zimni o‘nglab.

Men sizni qattiq sevaman, hammadan qizg‘onaman, lekin aniq bilamanki, u ayol sizni mendan-da ortiq sevadi va siz bilan bir soniya bo‘lsada birga suhbat qurib, diydoringizga to‘yishni istaydi. Bu inson sizning onangiz, - dedi ayolim.

Chuqur o‘yga tolib qoldim. Mana 17 yildirki, onam dadamsiz, birgina ukam bilan qishloqda yashaydi. Uchta bola va ayolimni yaxshi kiyintirib, yaxshi boqaman, deb biror marta onamga tuzukroq e‘tibor bermabman, «O‘g‘il bo‘lmay ket, tur o‘rningdan!», deya o‘zimni o‘zim koyib o‘rnimdan turdim. Telefonimni olib onamga qo‘ng‘iroq qildim. Onam go‘shakni ko‘tariboq: «Tinchlikmi, bolam, nima bo‘ldi, buncha barvaqt telefon qilding», - deb qoldilar.

- Onajon, xavotirlanmang. Faqat yomon narsa bo‘lishi kerakmi, saharlab qo‘ng‘iroq qilishim uchun? Sizni sog‘indim, - dedim nafasim qisilib. Onam quloqlariga ishonmadilar shekilli. Chunki bu gapni ancha yillardan beri birinchi marta aytishim edi.

- Bolam, gaplaring yoqmayapti. Xuddi o‘limidan oldin vasiyat qiladiganlarga o‘xshab gapirma! Nima bo‘ldi? - deya yana so‘radilar.

Hech narsa emas, onajon. Maylimi, bugun kechga sizni biror restoranga kechki ovqatga taklif



qilsam? Ikkalamiz shu oqshomni birga o'tkazsak?

Bir oz jim qoldilar-da, «Jon-jon deyman, bolam» - dedilar-da piqillab yig'lab yubordilar. Kechqurun mashinamga minib, onamning uylari tomon ketarkanman, xuddi uzoq kutgan sevgilisi bilan uchrashuv oldidan hayajonga tushib qoladigan oshiqdek, balki undan ham battar holga tushib, yuragim tez-tez ura boshladi. Yetib kelib to'xtaganimda havo sovuq bo'lishiga qaramay, onam darvoza oldida kutib turardilar.

- Onajon, nega chiqib oldingiz? Kelib o'zim olib chiqardim, sovuqda muzlabsiz-ku? Onam kelib peshonamdan o'pib, so'rashdilar-da, «Bolam, yuragim toqat qilmay chiqib oldim», - dedilar.

Onam xuddi uchrashuvga chiqqandek yasanib olgandilar. Holatlarini ko'rib dam kulgim kelardi, dam o'zimni yomon ko'rardim: «Nega shu paytgacha onangni bir marta bo'lsa-da shunday xursand qilmading»...

Mashinaga o'tirar ekanlar, «Dugonalarimga bugun o'g'lim meni restoranga taklif qildi, desam hammasining menga havasi keldi», - dedilar.

Shahar markazidagi shinamgina restoranga kirdik. Kirar ekanmiz, onam qo'limdan ushlab olib, viqor bilan, xuddi shaharning birinchi raqamli xonimidek yurib borardilar. Ko'zlaridagi quvonchni yashirishning imkoni yo'q edi. Stolga o'tirar ekanmiz, menyuni olib o'qidim. Onam ancha ko'zdan qolibdilar, faqat katta harflarni ko'ra oldilar xolos.

- Sen bolaligingda o'qishni bilmasding, menyuni men o'qirdim, sen esa erkalanib biror narsa tanlaguningcha ancha vaqt o'tardi, endi esa sening navbating kelibdi, - dedilar onam uzoq o'tmishni eslab.

Suhbat qurib uzoq o'tirdik. Vaqt allamahol bo'lganini ham sezmadim. Qalbimda qandaydir shirin xotiralar, notanish iliqlik jo'sh ura boshladi. Qanchalar ajoyib kecha bo'ldi. «Onajonimni nega shu paytgacha bir marta bo'lsa-da restoranga taklif qilmabman? Bu shunchalar ajoyib ekan-ku», - deya o'zimni o'zim tergay boshladim. Onamni uylariga eltib qo'yar ekanman, «Bolam, sen bilan yana o'sha yerga borishni istayman», - dedilar.

- Bajonidil, onajon, unda kelayotgan haftada boramiz, - dedim.

- Lekin bu safar men to'layman restoranning pulini, - dedilar qaysarlik bilan.

- Mayli, onajon, siz nima desangiz shu, - dedim. Uyga qaytganimda ayolimga rahmat aytdim, axir u menga ajoyib bir oqshomni o'tkazishda katta yordam berdi-da.

Oradan ikki kun o'tmay saharda ukam telefon qilib, «Aka, tez keling, onamning yuraklari xuruj qildi», - deb qoldi.

Onamni tirik ko'rish nasib qilmadi. Borgunimcha jonlari uzilibdi. Ma'rakalaridan keyin ukam bir konvert tutqazdi, onam berib qo'ygan ekanlar. Ochdim. U yerda bir parcha qog'ozga xat qoldiribdilar:

«Bolam, vada qilganimdek, avvaldan borib restoranga ikki kishilik kechki ovqatni hisoblatib, pulini to'lab keldim. To'lov qog'ozi ham shu yerda. Balki o'sha kungacha men yetib bormasman. Lekin sen, albatta, ayolingni olib o'sha yerga borgan. Ikkalamiz o'tirgan joyga»...

Hikoya so'ngida ko'zlarimga yosh qalqidi. Qani edi bu qadar ta'sirli hikoyalarni o'z onasining qadriga yetmayotganlar o'qisa, ularning qadr - qimmatini joyiga qo'ysa. Garchi bu dunyoda onalarni e'zozlamaydigan millat bo'lmasa ham, ayrim kishilar borki, ularga bu haqda har kuni bong urib turish lozimdek.

Buni qarangki, bosh qomusimizdagi bir modda ham aynan ana shunday kishilarga mo'ljallangan ekan: «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar» (66-modda). Bu moddani o'zimcha hammaga ham taalluqli emas, deb tushundim. Uni qalbi ezgulikdan mahrum, adashganlar yoki unutganlar uchun eslatma, ogohlantirish deb qabul qilish mumkin, nazarimda. Chunki yaxshilarga yaxshilik qil, deb aytishning hojati yo'q. Ular hech bir ishni yaxshilik deb bajarmaydi - ularning hayot tarzi ezgulikka qurilgan. Ammo guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, ayrim kimsalar borki, har kuni har daqiqada ularga munis va mo'tabar zot bo'lmish onalarga yaxshilik qilish lozimligini eslatib turish zarur. Zero, onalarimiz omonatlarimizdir.

Annotation: in given article reveal; open called on astonishing evening of one with mother and awakening beside emotional recollection.

Keywords: mother, restaurant, joy, spouse, menu.